



FAKTORING XIZMATLARI BOZORI SHARHI

2026-yil I chorak



Mazkur **Faktoring xizmatlari bozori sharhi** O'zbekiston Respublikasida mahalliy va xalqaro faktoring xizmatlarining joriy holati, ularning rivojlanish yo'nalishlari, hududlar va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi qamrovi hamda kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo'llanilayotgan diskont stavkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritadi.


I. Mahalliy faktoring amaliyotlari tahlili

2026-yilning I choragida kredit tashkilotlari tomonidan jami **2,3 trln** so'mlik (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75 foiz o'sgan) faktoring xizmatlari ko'rsatilib, ushbu xizmatlarning **2,1 trln** so'mi yoki **94 foizi** tijorat banklari va **125 mlrd** so'mi yoki **6 foizi** mikromoliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shuningdek, mazkur faktoring xizmatlarining **65 foizi** klassik (an'anaviy) faktoring (*regress huquqi bilan 1,3 trln so'm va regress huquqsiz 165 mlrd so'm*) hamda **35 foizi** reversiv (teskari) faktoring (*796 mlrd so'm*) xizmatlaridan tashkil topgan (1-rasm).


Bunda, ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining **1,2 trln** so'mi yoki **53 foizi** raqamli faktoring xizmatlari hissasiga to'g'ri kelib, ushbu faktoring xizmatlarining **627 mlrd** so'mi (*52 foiz*) "Ozplanet" elektron faktoring platformasi, **571 mlrd** so'mi (*48 foiz*) "Finmakon" elektron faktoring platformasi orqali amalga oshirilgan (2-rasm).

1-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


2-rasm. Faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Biznes vakillarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini faktoring xizmati orqali moliyaviy ta'minlashning ortishi natijasida 2026-yilning mart oyida 2025-yilning mos davriga nisbatan 18 foizga ortib, **798 mlrd** so'mni tashkil etdi.(3-rasm).


3-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan 2025–2026-yillarning I choragida ko'rsatilgan faktoring xizmatlari dinamikasi, mlrd so'm



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

2026-yilning I choragi davomida tadbirkorlik subyektlariga **davlat ulushi mavjud tijorat banklari** tomonidan jami **1 trln** so'm (*49,9 foiz*), **xususiylar** tomonidan jami **1,1 trln** so'm (*50,1 foiz*) hamda mikromoliya tashkilotlari tomonidan **125 mlrd** so'm (*6 foiz*) miqdorida faktoring xizmatlari taqdim qilingan (4-rasm).

**4-rasm. Kredit tashkilotlari kesimida
2026-yilning I choragida ko'rsatilgan faktoring
xizmatlari miqdori, mlrd so'm**




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bugungi kunda, tijorat banklarining qisqa muddatli moliyalashtirish xizmatlarida faktoring xizmatlarini alternativ yechim sifatida taklif etish chorolari ko'rilmogda.

Natijada, 2026-yilning yanvar-mart oylarida qisqa muddatli moliyalashtirishda faktoring xizmatlarining ulushi 2025-yilning mos davriga nisbatan yanvar oyida **6,6 foiz** bandga, fevral oyida **4,9 foiz** bandga, mart oyida **0,3 foiz** bandga yuqori bo'lgan (5-rasm).


**5-rasm. 2025–2026-yillarning I choragida ko'rsatilgan
faktoring xizmatlarining qisqa muddatli
moliyalashtirishdagi ulushi, foiz**



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hududlar kesimida 2026-yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining asosiy qismi **Toshkent shahri** (1,1 trln so'm yoki 48 foiz), **Namangan viloyati** (228 mlrd so'm yoki 10,1 foiz), **Toshkent viloyati** (224 mlrd so'm yoki 9,9 foiz) va **Buxoro viloyati** hissasiga (204 mlrd so'm yoki 9 foiz) to'g'ri kelgan bo'lsa, **Qashqadaryo viloyati** (23 mlrd so'm yoki 1 foiz), **Qoraqalpog'iston Respublikasi** (19 mlrd so'm yoki 0,9 foiz) va **Jizzax viloyatida** (14 mlrd so'm yoki 0,6 foiz) eng past ko'rsatkich qayd etilgan (6-rasm).

**6-rasm. Hududlar kesimida 2026-yilning
I choragi davomida ko'rsatilgan faktoring xizmatlari,
foiz**




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mijozlarning tashkiliy shakli bo'yicha ko'rsatilgan faktoring xizmatlari taqsimotida eng yuqori ulush mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga to'g'ri kelib, ularga **2,2 trln so'm** yoki jami xizmatlarning **97,8 foiz** miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatilgan.

Shuningdek, xususiy, oilaviy korxonalar va fermer xo'jaliklarining **27 mlrd so'mlik**

(1,2 foiz) hamda chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining 24 mlrd soʻmlik (1,1 foiz) debitorlik qarzlari faktoring xizmatlari orqali moliyalashtirilgan (7-rasm).


7-rasm. Faktoring xizmatlarining korxonalar tashkiliy shakli boʻyicha taqsimoti, mlrd soʻm



Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Jami faktoring xizmatlarining 9 mlrd soʻmi yoki 0,4 foizi yillik aylanma mablagʻlari 1 mlrd soʻmgacha boʻlgan tadbirkorlik subyektlariga (mikromoliya tashkilotlari 7 mlrd soʻm, tijorat banklari 2 mlrd soʻm), 62 mlrd soʻmi yoki 3 foizi aylanmasi 1 mlrd soʻmdan 10 mlrd soʻmgacha boʻlgan tadbirkorlarga, 448 mlrd soʻmi yoki 20 foizi aylanmasi 10 mlrd soʻmdan 100 mlrd soʻmgacha boʻlgan tadbirkorlarga va 1 739 mlrd soʻmi yoki 77 foizi aylanmasi 100 mlrd soʻmdan ortiq boʻlgan tadbirkorlarga koʻrsatilgan (8-rasm).

8-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining yillik aylanmalariga koʻra toifalanganida faktoring xizmatlaridan foydalanish tahlili, mlrd soʻm




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Muddatlar qirqimida 30 kungacha faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 17 foizini (391 mlrd soʻm), 31 kundan 60 kungacha –

16 foizini (361 mlrd soʻm), 61 kundan 90 kungacha – 45 foizini (1 016 mlrd soʻm), 91 kundan 120 kungacha – 6 foizini (125 mlrd soʻm) hamda 121 kundan 180 kungacha - 16 foizini (364 mlrd soʻm) tashkil qilgan (9-rasm).


9-rasm. Faktoring xizmatlarining muddatlari boʻyicha tahlili, foiz



Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Miqdorlar boʻyicha 100 mln soʻmgacha faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 0,4 foizini (8 mlrd soʻm), 100 mln soʻmdan 500 mln soʻmgacha 3 foizini (72 mlrd soʻm), 500 mln soʻmdan 1 mlrd soʻmgacha 6 foizini (125 mlrd soʻm), 1 mlrd soʻmdan 5 mlrd soʻmgacha 30 foizini (675 mlrd soʻm) hamda 5 mlrd soʻmdan yuqori boʻlgan faktoring xizmatlari 61 foizini (1 377 mlrd soʻm) tashkil qilgan (10-rasm).

10-rasm. Faktoring xizmatlarining miqdorlari boʻyicha tahlili, foiz




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faktoring xizmatlarining asosiy qismi Savdo va xizmat koʻrsatish

sohasiga yoʻnaltirilib, **1,2 trln** soʻm yoki jami hajmning 53 foizini tashkil etgan. **Sanoat** sohasiga **868 mlrd** soʻm yoki 38 foiz yoʻnaltirilgan.

Shuningdek, **qurilish** va **qishloq xoʻjaligi** sektorlarida mos ravishda **98 mlrd** soʻmlik (4 foiz) va **105 mlrd** soʻmlik (5 foiz) debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirilgan (11-rasm).

11-rasm. Iqtisodiyot sohalari boʻyicha koʻrsatilgan faktoring xizmatlari, foiz




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

II. Xalqaro faktoring amaliyotlari tahlili

2026-yilning I choragida tijorat banklari tomonidan **190 mlrd** soʻm ekvivalentidagi (jamiga nisbatan 8%) regress huquqi bilan xalqaro faktoring xizmati koʻrsatilgan boʻlib, mazkur koʻrsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 41 barobarga koʻp (12-rasm).

12-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan koʻrsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari hajmi, mlrd soʻm




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Xalqaro faktoring operatsiyalarida banklar boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich **Mikrokreditbank** (7,1 mln dollar yoki 46 foiz), **Asakabank** (3,7 mln dollar

yoki 23 foiz), **Kapitalbank** (2,2 mln dollar yoki 14 foiz) tomonidan koʻrsatilgan.

Shuningdek, **Oriyent finans bank** 1,9 mln dollar (12 foiz), **Ipak yoʻli banki** 292 ming dollar va 46 ming yevro (2,2 foiz), **Oʻzmilliybank** 1,5 mln yuan (1,3 foiz), **Biznesni rivojlantirish banki** 129 ming dollar (0,8 foiz) miqdoridagi xalqaro faktoring operatsiyalarini amalga oshirgan (13-rasm).


13-rasm. Tijorat banklari tomonidan koʻrsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari, ming (dollar, yevro va yuan)



Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Muddatlar qirgimida 30 kungacha xalqaro faktoring xizmatlari jami xalqaro faktoring xizmatlarining 15 foizini (28 mlrd soʻm), **31 kundan 60 kungacha** – 18 foizini (33 mlrd soʻm), **61 kundan 90 kungacha** – 6 foizini (12 mlrd soʻm), **91 kundan 120 kungacha** – 5 foizini (9 mlrd soʻm) hamda **121 kundan 180 kungacha** - 56 foizini (107 mlrd soʻm) tashkil qilgan (14-rasm).

14-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlari muddatlari boʻyicha taqsimoti, foiz




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Miqdorlar boʻyicha 500 mln soʻmgacha xalqaro faktoring xizmatlari jami xalqaro faktoring xizmatlarining 1 foizini (2 mlrd soʻm), **500 mln** soʻmdan **1 mlrd** soʻmgacha 2 foizini (3 mlrd soʻm),

1 mlrd soʻmdan 5 mlrd soʻmgacha 25 foizini (48 mlrd soʻm), 5 mlrd soʻmdan yuqori boʻlgan faktoring xizmatlari 72 foizini (137 mlrd soʻm) tashkil qilgan (15-rasm).


15-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlari miqdorlari boʻyicha taqsimoti, foiz



Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi **savdo va xizmat koʻrsatish** sohasiga yoʻnaltirilib, **98 mlrd soʻm** yoki jami hajmning 52 foizini tashkil etgan. **Sanoat sohasiga 92 mlrd soʻm** yoki 48 foiz mablagʻlar yoʻnaltirilgan (16-rasm).

16-rasm. Iqtisodiyot sohalari boʻyicha koʻrsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari, foiz




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

Xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi **Birlashgan Arab Amirliklari** (73,3 mlrd soʻm yoki 39 foiz) va **Rossiya** (65,4 mlrd soʻm yoki 34 foiz) davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalari boʻyicha yuzaga kelgan debitorlik qarzdorliklarini moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilgan.

Shuningdek, xalqaro faktoring xizmatlarining qolgan qismi **Tojikiston** (18,2 mlrd soʻm yoki 9,6 foiz),

Qozogʻiston (12,2 mlrd soʻm yoki 6,4 foiz), **Turkiya** (10,6 mlrd soʻm yoki 5,6 foiz), **Qirgʻiziston** (3 mlrd soʻm yoki 1,6 foiz), **Afgʻoniston** (2,7 mlrd soʻm yoki 1,4 foiz), **Xitoy** (2,5 mlrd soʻm yoki 1,3 foiz), **AQSH** (1,6 mlrd soʻm yoki 0,8 foiz), **Shveysariya** (0,34 mlrd soʻm yoki 0,2 foiz) **Polsha** (0,31 mlrd soʻm yoki 0,2 foiz) davlatlari hissasiga toʻgʻri kelgan (17-rasm).

17-rasm. Xalqaro faktoring xizmatlarining davlatlar kesimidagi tahlili, mlrd soʻm




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

2026-yilning I choragida **Aziya-Invest bank** tomonidan eksportyor korxonalariga Oʻzmilliybank, Asaka bank, Hamkorbank, Invest Finans bank va Agrobank bilan tuzilgan **agentlik xizmati shartnomalari** asosida jami **45 mlrd soʻm** ekvivalentidagi xalqaro faktoring amalga oshirilgan.

Jumladan, ushbu agentlik shartnomasi doirasida amalga oshirilgan xalqaro faktoring xizmati 2,4 mln dollar va 100,3 mln rublda koʻrsatilgan (18-rasm).

18-rasm. Aziya-Invest bank bilan tuzilgan agentlik xizmati shartnomalari asosida koʻrsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari, ming dollar




Manba: Markaziy bank maʼlumotlari

III. Faktoring xizmatlari diskont stavkasi

Tijorat banklari tomonidan mahalliy va xalqaro faktoring xizmati bo'yicha bank mahsulotlari ishlab chiqilgan bo'lib, faktoring xizmat turlarining muddatlaridan (180 kungacha) kelib chiqqan holda diskont stavkalari belgilangan (18-rasm).

18-rasm. Kredit tashkilotlarining faktoring xizmatlarida qo'llanilayotgan diskont stavkalari



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari